

SAVOD O'RGATISHDA ANALITIK-SINTETIK TOVUSH METODI

*Nishonova Husnida Bahromjon qizi,
Qo'qon universiteti Boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

*Abdupattayev G'ulomjon G'ofurjon o'g'li,
Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.*

Anatatsiya: Ushbu tezis savod o'rgatish jarayonida analitik sintetik tovush metodi haqida ma'lumot beradi. Analitik – sintetik tovush metodi – bu o'qishni o'rgatishda ishlatiladigan metod bo'lib, u tovush, bo'g'in, so'z va gap birliklarini tahlil qilish (analiz) hamda ularni birlashtirish (sintez) asosida o'quvchilarga o'qish va yozishni o'rgatadi.

Kalit so'z: analitik sintetik, tovush, bo'g'in, so'z, metod, psixolingvistik.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается аналитико-синтетический метод звукоизвлечения в процессе обучения грамоте. Аналитико-синтетический метод звукоизвлечения — это метод обучения чтению, который позволяет учащимся читать и писать на основе анализа (анализа) звуков, слогов, слов и предложений и их сочетания (синтеза).

Ключевые слова: аналитико-синтетический метод, звук, слог, слово, метод, психолингвистика.

Abstract: This thesis provides information about the analytical-synthetic sound method in the process of teaching literacy. The analytical-synthetic sound method is a method used in teaching reading, which teaches students to read and write based on the analysis (analysis) of sounds, syllables, words and sentence units and their combination (synthesis).

Keywords: analytical-synthetic, sound, syllable, word, method, psycholinguistics.

Kirish qism: Analitik - sintetik tovush metodiga K.D.Ushenskiy asos solgan. Analitik – sintetik tovush metodi an'anaviy tamoyillarga va shakillanish, tashkil topish jarayonida bo'lgan tamoyillarga ega. Metodning an'anaviy tamoyillari quyidagilar:

1. Savod o'rgatishda analitik – sintetik tovush metodi shaxsan shakillantirish maqsadiga ko'ra ta'limiy va o'stiruvchi harakterda bo'ladi, nutqiy mashqlar orqali aqlning o'sishini ta'minlaydi, o'qitishning ongli bo'lishini talab etadi.
2. O'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

Bu metod tashkiliy tomondan ikkiga bo‘linadi:

Alifbogacha tayyorlov davri.	Alifbo davriga bo‘linadi. Ikkinchidan, yozuvga o‘rgatish, o‘qishga o‘rgatish bilan teng holda olib boriladi.
------------------------------	---

Analitik – sintetik tovush metodi psixolingvistik nuqtai nazaridan: birinchidan, savod o‘rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi; ikkinchidan, savod o‘rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulyatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi; uchinchidan, o‘qish birligi sifatidabo‘g‘in olinadi, bo‘g‘in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanishi va tashkil topish jarayonida bo‘lgan tamoyillari:		
Ta‘lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga differensial va individual yondashish.	O‘qitishning istiqbolli nuqtai nazaridan: grammatika, imlo, so‘z yasalishi, leksikologiyaga oid bilimlarni nazaryasiz amaliy asosda muntazam berib boorish.	Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o‘qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ikkinchidan, ta‘limning tarbiyaviy va o‘stiruvchi xarakteri hisobga olinadi.

Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar. “Alifbe” sahifalarida do‘stlik, baynalmilal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o‘yinlari, oila, maktab hayoti kabi rasmlar berilgan. Turli mavzularda matn berilgan. Bular bolalarda o‘zaro do‘stlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hayvonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o‘qishni sevish – umuman, estetik tarbiyani shakllantiradi. Bular bolalarni xalqning qaynoq hayotiga, uning baxtiga, orzulariga, muvaffaqiyotlariga ruhlantiradi. Umuman aytganda, bolalarga axloqiy, g‘oyaviy – siyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod o‘rgatish vazifasiga kiradi.

Asosiy qism: Savod o‘rgatishni to‘g‘ri tashkil uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligi maxsus o‘rganish talab etiladi. Maxsus o‘rganish avgustda, hatto undan oldin – bahordan boshlanadi. 1-sinfga keladigan o‘quvchining oilasiga yoki bolalar bog‘chasiga boriladi, suhbat o‘tkaziladi, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlanadi.

O‘qish ko‘nikmasini aniqlash: so‘zni sidirg‘a o‘qiydi; ayrim harflarni biladi; anchagina harflarni biladi, lekin o‘qishni bilmaydi; harflab o‘qiydi(notog‘ri o‘qish); bo‘g‘inlab o‘qiydi.

Yozuv ko‘nikmasi: hamma harfni yozishni biladi, so‘z yozadi(bosma yoki yozma); ayrim harflarnigina yozishni biladi(bosma yoki yozma); yozishni umuman bilmaydi.

Tovushni tahlil qilishga tayyorgarlik

So‘zni bo‘g‘inlarga bo‘ladi.	So‘z yoki bo‘g‘indagi tovushni ajratish.	Hamma tovushni to‘g‘ri talaffuz qiladi
Ayrim tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi(qaysi tovushlar ekanligi hisobga olinadi).		Nutqning baland yoki pastligi.

Og‘izaki bog‘lanishli nutq. She’rni yoddan o‘qish		
3 ta she’rni biladi, uni zavqlanib aytadi.	1-2 ta she’rni biladi, uni aytishga uyaladi.	Birorta she’rni yoddan o‘qishni bilmaydi.

Og‘izaki bog‘lanishli nutq. Fikr bayon qilish.

(Rasmda nimalar ko‘rayotganiningni aytib ber).

- A.20 so‘zdan ortiq bog‘lanishli hikoya, bir necha gap;
- B.10 tadan 20 tagacha so‘z, bir necha gap;
- C.10 tagacha so‘zli bog‘lanishli javob;
- D.3 – 4 so‘zli qisqa javob.

Shuningdek, bola nutqining sintaktik qurilishi ham, foydalaniladigan so‘zlar doirasi ham o‘rganiladi, to‘plangan materiallar 2 variantda yoziladi.

a) Har bir o‘quvchi haqida alohida alohida ma’lumot, bu bolaga yakka yoki differensial yondashish uchun kerak bo‘ladi;

b) Sinf o‘quvchilari uchun umumiy ma’lumot, bu ma’lumotdan darsda sinf o‘quvchilar uchun umumiy ishlar metodikasini tanlashda foydalaniladi;

c) Ma’lumotning bittasi maktab ma’lumotida, ikkinchi nusxasi sinf o‘qituvchisida qoladi.

Xulosa: Analitik-sintetik tovush metodi savod o‘rgatishda o‘quvchilarning tovush, bo‘g‘in, so‘z va gaplarni ongli ravishda tushunishiga va ularni mustaqil tarzda tahlil qilish hamda birlashtirish malakasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu metod orqali bolalar tovushlarni eshitish, farqlash, o‘qish va yozuvni izchil o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qituvchi uchun esa darsni bosqichma-bosqich tashkil etish va o‘quvchining faolligini ta’minlashda qulaylik yaratadi. Shu bois, bu metod

boshlang'ich ta'limda o'qish-yozuv o'rgatishning samarali usullaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yu. K. Babaniskiy "Hozirgi zamon umumta'lim maktablarida o'qitish metodlari". Toshkent – "O'qituvchi" 1990 yil.
2. Mahmudov M. "Maktabda muammoli ta'limni tashkil qilish" Toshkent – "O'qituvchi" 1981 yil.
3. Abdupattayev, G. (2025). NABIJON BOQIYNING "ROHILA" QISSASIDA XARAKTER VA KONFLIKT MASALASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 14, 127-128. <https://doi.org/10.54613/ku.v14i.1140>
4. Xodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). Murod Muhammad Do'st ijodida davr va qahramon muammosi. Amerika ijtimoiy va gumanitar tadqiqotlar jurnali, 3 (12), 77-81
5. Abdupattayev, G. (2025). "ROHILA" QISSASIDA MILLIY KOLORIT VA AN'ANALAR TASVIRI. *Universitet tadqiqot bazasi*, 481–486. <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/1049>

